

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TURIZM TARMOQLARINI SINERGETIK RIVOJLANISHINI TASHKIL ETISH

Saidova Dilfuza Abdufattohovna

Farg'ona Davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamlashtirish jarayonlari sharoitida turizm tarmoqlarini sinergetik rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Turizm sohasida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi nafaqat xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashi, balki uni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan integratsiyalash imkoniyatini yaratishi ta'kidlangan. Turizmning transport, mehmondo'stlik, madaniyat, qishloq xo'jaligi va axborot texnologiyalari kabi sohalar bilan o'zaro bog'liq holda rivojlanishi orqali yuqori qo'shilgan qiymat yaratilishi bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm, raqamlashtirish, sinergetik rivojlanish, iqtisodiy integratsiya, aqlli turizm, innovatsiya, tarmoqlararo hamkorlik, agroturizm, raqamli infratuzilma.

Аннотация

В данной статье проанализированы теоретические и практические основы синергетического развития туристских сетей в условиях процессов цифровизации. Отмечено, что внедрение цифровых технологий в сфере туризма не только улучшит качество обслуживания, но и создаст возможность его интеграции с другими секторами экономики. Разработаны практические предложения и рекомендации по созданию высокой добавленной стоимости за счет развития туризма во взаимосвязи с такими отраслями, как транспорт, гостеприимство, культура, сельское хозяйство и информационные технологии.

Ключевые слова: туризм, цифровизация, синергетическое развитие, экономическая интеграция, интеллектуальный туризм, инновации, межотраслевое сотрудничество, агротуризм, цифровая инфраструктура.

Abstract

This article analyzes the theoretical and practical foundations of the synergistic development of Tourism networks in the context of digitization processes. The introduction of digital technologies in the field of tourism is noted not only to improve the quality of service, but also to make it possible to integrate it with other sectors of the economy. Practical proposals and recommendations have been developed to create high value added through the development of tourism in relation to areas such as transport, hospitality, culture, agriculture and Information Technology.

Keywords: tourism, digitization, synergistic development, economic integration, smart tourism, innovation, inter-sector cooperation, agrotourism, digital infrastructure.

KIRISH

So'nggi yillarda jahon miqyosida raqamlashtirish jarayonlari jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Bu tendensiya nafaqat sanoat, moliya yoki ta'lim sohalariga,

balki xizmat ko'rsatish sektorining eng murakkab va ko'p tarmoqli sohalaridan biri bo'lgan turizmga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Turizm raqamli texnologiyalar asosida qayta shakllanmoqda - bu esa an'anaviy sayohat modellarini zamonaviy raqamli ekotizimlarga aylantirishni talab qiladi.

Ayniqsa, postpandemiya davrida raqamli yechimlar turizmga raqobatbardoshlikni ta'minlashda asosiy omilga aylandi. Onlayn bronlash, mobil gid ilovalar, virtual ekskursiyalar, ma'lumotlarni real-time rejimida tahlil qilish imkoniyatlari turistik tajribaning sifatini yuqori darajaga olib chiqmoqda. Bu jarayonda nafaqat servis, balki turizm bilan bog'liq barcha sohalar - transport, mehmondo'stlik, IT, madaniyat, hunarmandchilik va boshqalar ham raqamli integratsiyaga jalb etilmoqda.

Bunday shart-sharoitda turizmni tarmoqlararo muvofiqlik asosida rivojlantirish, ya'ni sinergetik yondashuvni amalga oshirish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Sinergetik rivojlanish - bu turizm sohasini iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan bir-biriga bog'langan, o'zaro ta'sirchan va o'zaro manfaatli tizimda rivojlantirish deganidir. Bu yondashuv nafaqat xizmatlar sifatini oshiradi, balki yangi ish o'rinlari yaratilishi, mahalliy aholining daromadlarini oshishi va milliy brendning shakllanishiga ham xizmat qiladi.

Turizm XXI asrda jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va yuqori salohiyatga ega sohalaridan biriga aylandi. BMTning Turizm bo'yicha Jahon tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, turizm yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, valyuta tushumlari, ish o'rinlari yaratilishi va xalqaro investitsiyalarni jalb etishda katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun turizmni rivojlantirish iqtisodiy o'sish, hududiy tenglik va madaniy merosni asrab-avaylash vositasi sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston kabi ulkan tarixiy, madaniy va tabiiy resurslarga ega mamlakatlar uchun turizm milliy brendni shakllantirish, iqtisodiy diversifikatsiyani amalga oshirish va global raqobatda munosib o'rin egallashda strategik ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, turizm tarmog'ining barqaror rivojlanishi bugungi kunda raqamli texnologiyalarni to'liq joriy qilish va turizm bilan bog'liq boshqa sohalar bilan uyg'un integratsiyani ta'minlashni taqozo etmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Turizmni raqamlashtirish va uning sinergetik rivojlanishi masalalari so'nggi o'n yillikda jahon va mahalliy ilmiy doiralarda keng muhokama qilinmoqda. Ilmiy adabiyotlarda bu masala turli yondashuvlar asosida ko'rib chiqilgan - iqtisodiy, texnologik, madaniy, hamda tizimli integratsiya nuqtai nazaridan.

D. Buhalis va R. Law o'zining mashhur tadqiqotida turizm sohasida axborot texnologiyalarining evolyusiyasi va uning xizmat ko'rsatish jarayoniga ta'sirini chuqur tahlil qilgan. Ularning fikricha, raqamli texnologiyalar turistik mahsulotning barcha bosqichlarini (buyurtma berish, safar davomidagi xizmatlar, foydalanuvchi tajribasi va post-sayohat aloqalari) transformatsiya qiladi.[1] Lekin ularning tadqiqoti asosan internet-texnologiyalarga yo'naltirilgan bo'lib, turizmning boshqa sohalar bilan sinergetik bog'liqligi kamroq yoritilgan.

Gretzel, Sigala, Xiang va Koo tomonidan, «Smart tourism» konsepsiyasini ilgari surib, intellektual turizm tizimlarining yo'nalishlarini belgilab bergan. Ular smart-texnologiyalar orqali shahar infratuzilmasini, mobil aloqa imkoniyatlarini, hamda interaktiv platformalarni bir-biriga bog'lash modelini taklif qiladi. Bu yondashuv turizmning transport, axborot va shahar xizmatlari bilan o'zaro bog'liq holda rivojlanishini nazarda tutadi.[2] Ammo tadqiqotda qishloq turizmi yoki hududiy diversifikatsiya masalalari yetarlicha qamrab olinmagan.

UNWTO xalqaro tashkiloti tomonidan tayyorlangan «Innovation and Digital Transformation in Tourism» hisobotida raqamli innovatsiyalar va ularning turizmga ta'siri, ayniqsa pandemiyadan so'nggi global realiyatlarda, ko'rsatib berilgan. Bu manba raqamlashtirish orqali turizmni qayta formatlash imkoniyatlarini amaliy misollar orqali tahlil qiladi.[3] Lekin hisobot umumiy strategik tavsiyalardan iborat bo'lib, har bir davlatning o'ziga xos iqtisodiy va infratuzilmaviy sharoitlarini hisobga olmaydi.

Mahalliy olimlar ham bu masalaga e'tibor qaratib boshlagan. T.Alimov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, O'zbekistonda raqamli turizmni joriy qilish jarayonlarini o'rganib, uning huquqiy, infratuzilmaviy va ta'limiy bazasini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi.[4] Ammo u tadqiqotda turizmning boshqa tarmoqlar bilan integratsiyasi yoki sinergetik rivojlanishi masalalariga jiddiy e'tibor qaratmagan.

M.Qurbonov o'z ishida O'zbekistonda turizmni raqamlashtirishda davlat siyosatining roli, raqamli platformalar va tadbirkorlik muhitini tahlil qilgan. Muallif innovatsion yechimlarning muhimligini qayd etgan holda, ularni mahalliy imkoniyatlar bilan uyg'unlashtirishdagi muammolarga to'xtalgan.[5] Lekin tadqiqotda sinergetik yondashuvning nazariy asoslari va iqtisodiy samaradorligiga oid tahlillar yetarli darajada berilmagan.

METODOLOGIYA

Raqamlashtirish sharoitida turizm tarmoqlarini sinergetik rivojlanishini tashkil etishni tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash usullari qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda jahon bo'ylab turizm raqamlashtirish jarayoni orqali tub o'zgarishlar bosqichiga kirdi. Yangi texnologiyalar - sun'iy intellekt, «katta ma'lumotlar» (Big Data), blokcheyn, IoT (internet ashyolari), virtual va qo'shimcha reallik (VR/AR), mobil ilovalar va interaktiv platformalar turizm sohasini yanada shaxsiylashgan, qulay va samarali xizmat turlariga aylantirmoqda. Bu o'zgarishlar faqatgina turizmni modernizatsiya qilish emas, balki uni boshqa tarmoqlar bilan muvozanatli rivojlantirish, o'zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlash imkonini ham yaratmoqda.

Turizmning sinergetik rivojlanishi - bu uning transport, mehmondo'stlik, madaniyat, ekologiya, axborot texnologiyalari, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va boshqa sohalar bilan o'zaro ta'sirchan mexanizmlar asosida mutanosib rivojlanishi

demakdir. Bunday yondashuv orqali turizm faqatgina servis sohasi emas, balki hududiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi kompleks drayverga aylanadi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, mazkur mavzu nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o'ta dolzarbdir. Ayniqsa, O'zbekistonda «Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasi», «Turizmni rivojlantirish strategiyasi», «e-Government» va «Smart City» kabi tashabbuslar fonida turizmni raqamlashtirish va uni boshqa sohalar bilan integratsiya qilish masalalari milliy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Raqamli texnologiyalar turizmdagi xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlar tahlili va foydalanuvchi tajribasini yaxshilash orqali samaradorlikni oshirmoqda. Quyida raqamlashtirishning turizm faoliyatining asosiy elementlariga ta'sirini ko'rsatuvchi jadval keltirilgan:

1-jadval.

Turizm sohasida raqamlashtirish ta'sirining asosiy yo'nalishlari¹

Yo'nalishlar	Raqamlashtirish ta'siri	Texnologiyalar
Bronlash va sotish	Onlayn rezervatsiya, avtomatik to'lovlar	Booking.com, Agoda, QR-to'lov, API-integratsiya
Marketing	Shaxsiylashgan reklama, SEO, sostarmoqlar orqali ilgari surish	Google Ads, Meta Pixel, Influencer Marketing
Turistik marshrutlar	Smart-navigatsiya, AR/VR gidlar	Google Maps, AR City Guide, Virtual Tours
Tahlil va boshqaruv	Big Data asosida qaror qabul qilish	AI-analitika, Tableau, Power BI
Mehmonxona va servis	Avtomatlashtirilgan chek-in/chek-aut, smart-hizmatlar	IoT, mobil ilovalar, self-service kiosklar

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, raqamlashtirish turizmning deyarli barcha bosqichlarini qamrab olgan. Bu yechimlar nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki yangi qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatini ham beradi. Masalan, virtual sayohat xizmatlari real vaqtda tashriflardan oldin taassurot uyg'otish va qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamlashtirish jarayonlari turizm sohasini nafaqat modernizatsiya qilish, balki uni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan mutanosib va sinergetik rivojlantirish imkonini bermoqda. Ushbu maqolada olib borilgan tahlillardan kelib chiqib, turizm sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etish va uning transport, mehmondo'stlik, madaniyat, qishloq xo'jaligi va axborot texnologiyalari tarmoqlari bilan o'zaro bog'liq holda rivojlanishi yuqori ijtimoiy-iqtisodiy samara berishi isbotlandi. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

1. Raqamlashtirish turizmni jahon standartlariga olib chiqishda hal qiluvchi omildir. Onlayn bronlash, smart-gidlar, AR/VR texnologiyalar, va avtomatlashtirilgan xizmatlar turistik mahsulot sifatini va raqobatbardoshligini oshirmoqda.

¹ Muallif ishlanmasi

2. Turizmning sinergetik rivojlanishi uni ko'p sohali drayverga aylantiradi. Turizmning transport, madaniyat, IT va boshqa tarmoqlar bilan integratsiyasi nafaqat xizmat ko'rsatish samaradorligini oshiradi, balki yangi ish o'rinlari yaratish, chekka hududlarni rivojlantirish va innovatsiyalarni keng tatbiq etish imkonini beradi.

3. Sinergetik rivojlanish yuqori qo'shilgan qiymat yaratadi. Masalan, agroturizm orqali fermerlar daromad oladi, turistlar esa unikal tajribaga ega bo'ladi. Shu orqali ham turizm, ham qishloq xo'jaligi sohalari faollashadi.

4. Sohaning raqamli infratuzilmasini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi. Turizmning raqamlashgan tarmoqlarga integratsiyasi uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron to'lov platformalari, mobil ilovalar va ma'lumotlar tahlili tizimlari talab etiladi.

Amaliy takliflar:

- Raqamli infratuzilmani kuchaytirish: Har bir turistik hududda Wi-Fi hududlar, interaktiv axborot markazlari, AR-gidlar va elektron xizmatlar joriy qilinishi lozim.

- Kadrlar salohiyatini oshirish: Turizm va IT sohasini birlashtiruvchi mutaxassislar tayyorlash bo'yicha maxsus ta'lim dasturlari yo'lga qo'yilishi zarur.

- Ilmiy va innovatsion tadqiqotlarni rag'batlantirish: Turizm raqamlashtirish va sinergetik rivojlanishni tadqiq qiladigan ilmiy markazlar va startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash muhim.

- Lokal hududlarni jalb etish: Chekka tuman va qishloqlarda agroturizm, etnoturizm va ekologik turizmni raqamli platformalar asosida rivojlantirish turizmning hududiy ta'sirini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Buhalis, D., & Law, R. (2008). Progress in information technology and tourism management: 20 years on and 10 years after the Internet – The state of eTourism research. *Tourism Management*, 29(4), 609–623.

<https://doi.org/10.1016/j.tourman.2008.01.005>

2. Gretzel, U., Sigala, M., Xiang, Z., & Koo, C. (2015). Smart tourism: foundations and developments. *Electronic Markets*, 25(3), 179–188.

<https://doi.org/10.1007/s12525-015-0196-8>

3. UNWTO. (2020). Innovation and Digital Transformation in Tourism. World Tourism Organization. <https://www.unwto.org>

4. Alimov, T. (2021). Raqamli turizm: imkoniyatlar va istiqbollar. // Turizm ilmiy-amaliy jurnali, №3, 45-51.

5. Qurbonov, M. (2022). O'zbekistonda turizmni raqamlashtirishning amaliy mexanizmlari. // Iqtisodiy taraqqiyot masalalari, №1, 33-40.